



**AL XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**101- TURIZM YO'NALISHI TOLIBI
RO'ZIMATOV SHOHBOZNING "MINTAQA IQTISODI" FANIDAN
YOZGAN "MINTAQA EKSPORT SALOHIYATINI
YUKSALTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI"
MAVZUSIDA YOZGAN**

REFERATI

TOPSHIRDI: RO'ZIMATOV.SH

QABUL QILDI: IBADULLAYEV.E

URGANCH 2015

REJA:

KIRISH

1 MINTAQA VA EKSPORT SALOHIYATI TUSHUNCHALARINI ILMIY NAZARIY ASOSLARI.

2. O'ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT DASTURLARI.

3. IQTISODIYOTDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHI VA UNGA XOS XUSUSIYATLAR.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Kirish

Ma'lumki, "eksport salohiyati" tushunchasi ilmiy sohada keng qo'llanilib kelinayotgan hamda milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan atamalardan biridir. Shu o'rinda mintaqalar eksport salohiyatini baholash va undan oqilona foydalanishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish milliy iqtisodiyot uchun ayniqsa ahamiyatlidir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini barqaror sur'atlarda o'sishi va makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash, aholi bandligini oshirish, asosiy eksport qiluvchi sanoatning yetakchi korxonalari xamda kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash O'zbekistonda bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish respublika va uning mintaqalarida eksport sohasidagi faoliyatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yunalishlarga bagishlangan nutqida ta'kidlaganidek "O'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" ning roli bu borada tobora oshib bormoqda"

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda Xorazm mintaqasida iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosiblik saqlanib qolindi. Jumladan, 2014 yilda YaIM o'sish sur'ati respublikada 108,1%ni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Xorazm mintaqasida 109,0%ga teng bo'ldi. Bunda iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning ahamiyati beqiyosdir.

1. Mintaqa va eksport salohiyati tushunchalarini ilmiy nazariy asoslari

"Mintaqa" tushunchasiga ko'pgina olimlar o'zlarining turli nuqtai-nazarlarini bildirib o'tganlar.

"Mintaqa" tushunchasi nisbatan yangi atama bo'lib, iqtisodiyotning yangi yo'nalishi - "Mintaqaviy iqtisodiyot" bilan bog'lik. Unga birinchi bo'lib 1975 yil rus olimi N.N.Nekrasov quyidagicha ta'rif bergan: "Mintaqa - bu mamlakatning ko'p yoki oz darajada bir turdagi tabiiy sharoit xamda mavjud va moddiy-texnik baza, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga muvofik tabiiy resurslar uyg'unlashuvi asosida ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanish xarakteridagi yirik hudud tushuniladi"¹

A.G.Granbergning fikricha "Mintaqa - bu tarkibiy elementlarining yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turuvchi ma'lum hududdir"². "Mintaqa - umumiy tabiiy geografik, tarixiy, milliy-madaniy birlik va diniy-etnik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, turli bosqichda takomillashmagan boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishdagi ma'muriy-hududiy organlar faoliyatining mushtarakligini taqozo qiluvchi yaxlit hududiy birlik"³ deb ta'rif bergan O.Axmedov.

Mintaqalarga bag'ishlangan nashrlarda mazkur atamaga avtorlar turlicha yondashganlar. Jumladan, V.M.Ruggayzer o'zining "Региональное особенност общественного воспроизводства" nomli asarida Mintaqani ittifoqdosh respublika misolida ko'rgan. Keyinchalik, R.I.Shniper o'zining "Регион: экономические методы управления" asarida shunday deydi: "Mintaqa-respublika, avtonom respublika, oblast, shahar va rayonlarni o'z ichiga oladi".

O'zbekistonda Mintaqashunoslik muammolari izchil ravishda XX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlangan. Bunga iqtisodchilar ham, iqtisodchi-geograflar ham o'zlarining munosib xissalarini qo'shdilar. Iqtisodchi olimlardan S.K.Ziyodullayev, K.I.Lapkin, K.N.Bedrintsev, iqtisodchi geograflardan Z.M.Akromov, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev va boshqalar birinchilar qatorida mamlakatda Mintaqashunoslikning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etdilar.

¹ Некрасов Н.Н. Региональная экономика. М.: Экономика, 1975. 22-23 бетлар.

² Стратегии макрорегионов России: Методологические подходы, приоритеты и пути реализация / под ред. А.Г.Гранберга; М.: Наука, 2004. с.479.

³ Axmedov O,Bahriddinov N." Hozirgi zamon geografiasining dolzarb muammolari". A.: 2007. 10 bet.

Xususan, A.A Qayumov "Mintaqa (region)-bu ma'lum hudud bo'lib, u boshqa hududlardan qator belgilar bo'yicha farq qiladi va o'ziga xos bir butunlik, tarkibiy elementlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi deb ta'rif bergan A.Soliyevning ta'kidlashicha "Mintaqa" Mintaqaviy iqtisodiyotda ko'proq "hudud" ma'nosini anglatadi⁴".

Iqtisodchi olimlarning ko'pchiligi O'zbekiston hududini 6 ta iqtisodiy mintaqaga taksimlashni taklif etishgan. Keyingi yillarda ba'zi-bir iqtisodchi olimlar o'rtaga iqtisodiy mintaqalar sonini 4 tagacha qisqartirish to'g'risidagi taklifni kiritishmoqda. Umuman olganda, iqtisodchi olimlarning aksariyati respublikani quyidagi oltita iqtisodiy Mintaqaga taqsimlaganlar:

1. Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
2. Farg'ona (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari);
3. Zarafshon (Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari);
4. Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
5. Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari);
6. Quyi Amudaryo (Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati).

Iqtisodiy adabiyotlardagi yondashuvlarni tadqiq, etish asosida biz ularni quyidagi umumiy jihatlariga ko'ra guruhlariga ajratdik:

- 1-guruh olimlar mezon sifatida hududiy birliklarning ijtimoiy-geografik xususiyatlarini asos qilib olganlar;
- 2-guruh vakillari hududlarning ijtimoiy takror ishlab chiqarishning yaxlitligi bo'yicha;
- 3-guruh milliy davlat va ma'muriy-hududiy bo'linish chegaralari bo'yicha;
- 4-guruh esa ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi, agro va erkin iqtisodiy zonalar shakllari bo'yicha bir-biridan farqlaydilar.

Tashqi savdo faoliyati - bu xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib

⁴ Soliyev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. Toshkent: UzMU 2003 y., 8 bet.

chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tovarlar eksportidir.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir⁵.

O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'iy nazar ishlar (xizmatlar) eksportidir.

Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'iy nazar, ishlar (xizmatlar) importidir"⁶.

Raqobatbardoshlik kontseptsiyasining asosi milliy iqtisodiyotlarning xalqaro mexnat taqsimotidagi nisbiy ustunliklaridan (arzon ishchi kuchi, tabiiy resurslarga boyligi, qulay geografik o'rni, iqlim, infratuzilma omillari va boshqalar) bunday ustunlikka ega bo'lmagan davlatlarga mahsulotlarni eksport qilish hamda milliy iqtisodiyotdagiga nisbatan ustunligi yuqori bo'lgan mamlakatlardan mahsulotlarni import qilishda foydalanish nazariyasiga qurilgan⁷.

Raqobatbardoshlik - bu iqtisodiy sub'ekt yoki tovarning boshqa iqtisodiy sub'ekt yoki tovarning oldida o'z pozitsiyasini saqlab qolishi va uni yaxshilashidir. Raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi xolat va shart-sharoit raqobatbardoshlikning omillaridir.

Raqobatchi sub'ektning (tovarning) boshqalardan farqlanadigan foydali omillari raqobatning afzalliklari deyiladi.

Shu o'rinda tashqi va ichki raqobatbardoshlik tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Tashqi raqobatbardoshlik - jahon bozorida tovar va xizmatlar sota olish qobiliyati hamda eksport tarkibida mamlakat to'lov balansi barqarorligini ta'minlovchi yetarli miqdordagi tovar va xizmatlarning mavjudligi.

Ichki raqobatbardoshlik - ichki bozorda import tovarlari hamda boshqa maxalliy tovar ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat muhitida sotish qobiliyati bo'lib, eksport bilan

⁵ O'zbekiston Respublikasining 14.06.1991 yil № 285-XII sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirda), 11-modda

⁶ O'zbekiston Respublikasining № 285-XII sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni 30.04. 2004 y. 621-sonli Qonuni tahriridagi modda.

⁷ Бекетов Н.В. "Понятие конкурентоспособности и его эволюция" // Маркетинг в России и за рубежом. №6 (62), 2007 г. 83 бет

birga aholi daromadi va bandligining yuqori darajasini ta'minlaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi raqobatbardoshlik ichki raqobatbardoshlikni mavjud bo'lishini shart qilib qo'yadi, lekin aksincha emas. Ichki bozorda sotish tashqi raqobatbardoshlikka zamin yaratadi, ammo uning kafolatini ta'minlamaydi. Bu raqobatbardoshlikning eng quyi darajasidir.

Raqobatbardoshlik tadrijiy rivojlanadigan sanoatlashgan jamiyatning negizini tashkil qiladi. Boshlang'ich tarzda u ishlab chiqaruvchilarning ochiq bozorlardagi erkin raqobati hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni amalga oshirishda narx mexanizmidan ustun darajada foydalanishdir. Shu o'rinda, raqobatbardoshlik tushunchasi sanoatlashgan jamiyatda yillar mobaynida rivojlanib o'zgarib kelmoqda.

Bugungi kunning ilmiy sohasida keng qo'llanilayotgan atamalardan yana biri "eksport salohiyati"dir. Uning milliy iqtisodiyotimiz uchun bir qator yangi tushunchaligi boisidan uni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

"Salohiyat" tushunchasi ma'lum makon va zamon doirasida resurslarni umumlashtirish, jamlash ma'nosini bildiradi. "Iqtisodiy salohiyat" tushunchasi esa jamiyatni moddiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlarning xali mavjudligini anglatadi xamda ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi. Iqtisodiy salohiyatni baholashni tabiiy va inson resurslarini baholashdan boshlash lozim. Chunki, iqtisodni asosini cheklangan resurslar orqali insoniyatning cheksiz extiyojlarini optimal qondirish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning asosini xom-ashyo resurslari hamda inson mexnati tashkil qiladi.

Eksport salohiyatiga faqat rivojlanish imkoniyati sifatida qarash mazkur tushunchani belgilashga juda tor va bir taraflama yondashuv bo'ladi, chunki, uning haqiqiy (real) shaklini hisobga olmaydi. Shu bilan birga, "salohiyat" (inglizcha potential - imkoniyat, qudrat, kuch) so'zining etimologiyasida ham uni muayyan tizimning imkoniyatlarini baholash uchun foydalanish nazarda tutiladi. "Salohiyat" atamasi "imkoniyat" tushunchasidan ancha keng ma'noni bildiradi. "Imkoniyat"ni harakat va rivojlanish jarayonidagi tarkibiy element yoxud xatto uning funktsional "salohiyati" sifatida qabul qilish mumkin. Xususan, "eksport salohiyati" tushunchasini tadqiq qilish jarayonida bir nechta xorij va maxalliy olimlarning bergan ta'riflari xamda nuqtai-

nazarlari o'rganildi. Natijada, quyidagi 10 ta ta'rifni bir qator ko'rsatkichlariga ko'ra umumlashtirildi.

A.A.Maltsevning fikriga ko'ra: "Biror bir hududning eksport salohiyati mazkur mintaqaning aniq bir tashqi bozorga chiqish va uni mustahkamlash imkoniyatlari bo'yicha baholanadigan eksport bazasidir. Mintaqa eksport bazasi deganda korxonalarning eksportga ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bilan birgalikda shu hududda raqobatbardoshlik bo'yicha jahon standartlariga mos keladigan, ammo ba'zi sabablarga ko'ra xorijga jo'natilmayotgan mahsulotlarning yigindisidir"⁸.

Yondashuvning afzallik tomoni uning eksport salohiyatini mavjud koeffitsientlar bo'yicha miqdoriy baholash belgilab ko'rsatilganligi, berilgan parametrlar taxhlili uchun keng bazaning mavjudligi, eksport salohiyatini aniqlash bo'yicha universal metodikaning qo'llanishi, 2 ta kategoriya: "eksport salohiyati" va "eksport bazasi"ning o'zaro bog'liqlik darajasi ko'rsatib berilganligida o'z aksini topgan.

Y.A.Tokarevning ta'rificha: "Eksport salohiyati - xalq xo'jaligi va butun iqtisodiyot korxonalari va tarmoqlarining tashqi bozorlarda raqobatbardosh sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish; chet el fuqarolariga xizmat ko'rsatish, shu bilan birga ma'lum bir tarixiy davrda kapitalni chetga chiqarish bo'yicha qobiliyati majmuasidir"⁹.

Ushbu yondashuvda Y.V.Tokarev eksport salohiyatini nafaqat moddiy tovarlarni, balki, nomoddiy ishlab chiqarish - xizmatlarni yetkazib berish xam eksport salohiyatini belgilab beruvchi omil deb qaraydi. Jumladan, kapital eksportini xam e'tiborga oladi. Shu bilan birga olim mazkur tushunchani kengaytirib, makro va mikro darajada ko'rib chiqqan.

Iqtisodchi olim V.A.Suprunning fikricha eksport salohiyati va eksport ishlab chiqarishi nisbati, yaxlitlik va bir qismning nisbatidir. Eksport salohiyati yanada kengroq tushuncha sifatida eksport ishlab chiqarishini o'z tuzilmasiga kiritadi. U "Iqtisodiyotda qanchalik katta salohiyat bo'lsa, uning eksport salohiyati shunchalik yuqori bo'ladi" deb

⁸ Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-95 гг. Учебное пособие. - Екатеринбург: Изд-во ЕАИУП, 2004. - 260с.

⁹ Токарев Ю.А. Формирование и использование экспортного потенциала. Автореферат дисс. на соиск. канд. экон. наук: 08.00.05 Казань, 1997. 8с.

ta'kidlaydi. Eksport salohiyatini amalga oshirish darajasi eksport ishlab chiqarishi bo'lib, u jahon xo'jalik aloqalari tizimida qay darajada amal qilsa, shunday darajada mehnat taqsimotining asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot jarayonida kelingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyati ko'p jihatdan faqat makrodarajada ko'rib chiqilgan xamda uni hisoblash yoki aniqlash bo'yicha aniq ko'rsatmalar, formulalar berilmagan.

Mazkur tushunchaga yanada takomillashgan ta'rif berishga xarakat qiladigan bo'lsak "eksport salohiyati"ga muallif tomonidan taklif qilinayotgan ta'rif quyidagicha: "Eksport salohiyati - bu milliy iqtisodiyot, mintaqalar, aloxida olingan tarmoqlar yoki korxonalarning eksportga kerakli miqdorda raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va yetarli xajmda yetkazib berish qobiliyati"


1-jadval

"Eksport salohiyati" tushunchasiga entsiklopedik lugatlardagi ta'riflar

Entsiklopedik lug'atlar nomi	Tushunchaga berilgan ta'rif
“Энциклопедический словарь экономики и права”	Eksport salohiyati - davlatning mavjud resurslar yoki ishlab chiqariladigan mahsulotlarini eksport qila olish qobiliyati.
“Экономический словарь”	Eksport salohiyati - mamlakatda mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqariladigan resurs va mahsulotlarni eksportga chiqarish bo'yicha imkoniyati va potentsial qobiliyati.
“Словар бизнес терминов”	Eksport salohiyati - eksportga realizatsiya qilish maqsadida, sifat va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bo'yicha jahon bozori talablariga javob bera oladigan mahsulotlarni kerakli miqdorlarda ishlab chiqarish imkoniyati.
“Новый экономический словарь”	Eksport salohiyati - biror bir mamlakat sanoati, yalpi ijtimoiy ishlab chiqarishining umuman olganda tashqi bozorga kerakli miqdorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishi qobiliyatidir.

Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatidan foydalanilganlik darajasiga qarab u 2 qismga: aktiv va passiv eksport salohiyatlariga bo'linadi.

Aktiv eksport salohiyati - bu yalpi eksport salohiyatidan faqatgina foydalanilayotgan qismi. Ya'ni, jahon bozorlariga yoki chet davlatlarga eksport qilinayotgan raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyatlar yig'indisi.



1-Rasm Eksport salohiyatidan foydalanish darajasi

Passiv eksport salohiyati esa ma'lum bir jahon standartiga mos raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar ishlab chiqara olish imkoniyati, lekin undan ma'lum sabablarga ko'ra foydalana olmaslik. Masalan, mahsulot va xizmat ishlab chiqarilishi mumkin bo'lsada, lekin uni jahon bozoriga yetkazib berishda qulay, arzon transport tizimining mavjud emasligi yoki chet el texnik talablariga mos emasligi evaziga eksport qilina olmasligi va x.k. Rasmdagi doira shartli ravishda biror bir mamlakat yoxud mintaqaning yalpi eksport salohiyatini bildiradi. "Eksport salohiyati"ga biz tomonimizdan berilayotgan ta'rifning mazkur tushunchani tadqiq qilgan boshqa olimlarning yondashuvlaridan o'ziga xosligi shundaki, bunda xar bir yondashuvning umumiy farqli jixatlari qamrab oladi. Jumladan, eksport salohiyati faqat makrodarajadagina emas, balki, mintaqalar, aloxida olingan tarmoqlar va korxonalar darajasida ham bo'lib, ular nafaqat jahon bozorida raqobatbardosh moddiy ko'rinishdagi mahsulotlar balki, xizmatlar

ko'rsatish orqali xam baholanadi. Bundan tashqari mintqa eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillar tasnifi ishlab chiqilgan.

2- jadval

Mintaqa eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillar tasnifi

I. Bilvosita ta'sir etuvchi omillar	II. Bevosita ta'sir etuvchi Omillar
1. Tabiiy-geografik muhit • Mintaqaning geografik joylashuvi va bozor infratuzilmasining rivojlanganligi; • tabiiy resurslar (ta'minlanganligi, xarakteristikasi, ekologik xolat); • iqlim resurslari 2. Davlat siyosati • sanoat siyosati; • xususiy lashtirish siyosati; • pul-kredit siyosati; • antimonopol siyosati; • investitsiya siyosati; • innovatsion siyosat; • soliq - budjet siyosati. 3. Iqtisodiy muhit • Mintaqada bozor munosabatlarining rivojlanganligi; • Mintaqada xalq xo'jaligi institutsional tarkibining rivojlanganligi; • Mintaqa xalq xo'jaligi tarmoqdarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;	1. YaHM 2. Mintaqa tashqi savdo Aylanmasi 3. Mintaqa chakana savdo Aylanmasi 4. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya, jumladan xorijiy Investitsiyalar 5. Sanoat mahsulotlari xajmi 6. Aholining pul daromadlari 7. Eksportga ishlab chiqarishning kadrlar salohiyati Tarkibi 8. Mintaqaviy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi 9. Eksport mahsulotlariga iste'molchilarining Mavjudligi 10. Mintaqaning eksportga yo'naltirilganlik darajasi 11. Mintaqa eksporta tarkibida tayyor mahsulotlar

• Tashqi bozorlarga chiqishda ma'muriy, texnik va informatsion to'siqlarning mavjudligi yoki yo'qligi; • Mintaqa iqtisodiyotining ochiqqligi. 4. Xalqaro muhit • xalqaro mexnat taqsimoti; • xalqaro savdo va ayriboshlov; • xalqaro raqobatbardoshlik; • transport koridorlariga chiqish imkoniyati; 5. Ijtimoiy-demografik muhit • aholi soni; • yashash va bandlik darajasi; • ijtimoiy zo'riqish	ulushini oshirish
--	--------------------------

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, eksport salohiyati tushunchasiga berilgan ta'riflar, yondashuvlarning asosiy qismi faqat nazariy axamiyatga ega bo'lib, uni qanday uslublar yoki matematik formulalar vositasida hisoblash, baholash mumkinligini ochib bermaydi. Biz ushbu tadqiqot ishida eksport salohiyati tushunchasiga nafaqat nazariy-taxliliy yondashuv bilan balki, uni hisoblash yoki baholash metodikasi ustida ham to'xtalib o'tdik. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida eksport salohiyatini reytingli baholash uslubini ishlab chiqdik.

Mintaqa eksport salohiyatini reytinglashdan maqsad eksport salohiyatiga miqdoriy baho berish xamda ularning boshqa mintaqalar orasidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Ko'rsatkichlarni quyida keltirilgan formulalar yordamida yagona bir tizimli, taqqoslash imkonini beradigan xolatga keltirib olindi. Ular;

- jon boshiga to'g'ri kelgan mintaqa tashqi savdo aylanmasi, investitsiyalar, sanoat mahsuloti, qishloq xo'jaligi mahsuloti, xizmatlar, qo'shma korxonalar tashqi savdo aylanmasi;
- individual tadbirkorlar soni;
- barpo etilgan korxonalar soni (yil boshiga nisbatan %da);

- qo'shma korxonalarda band bo'lganlik darajasi;
- xar bir kichik biznesni korxonasiga to'gri kelgan kichik biznes korxonalari mahsuloti;
- jami investitsiyalarda korxonalar va aholining ulushi;
- kichik biznesda bandlar soni;
- mintaqa iqtisodiyotining ochiqlik darajasi;
- yalpi investitsiyalarda xorijiy investitsiya ulushi;
- kapital importi koeffitsienti (xorijiy investitsiya)lardir.

Baholash mintaqalarni ko'rsatkichlar bo'yicha yig'gan natijalari bo'yicha reytinglashni ifodalaydi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi xamda YaIM xajmi ko'p jixatdan mamlakat eksport salohiyati va undan naqadar oqilona foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Boshqa tomondan esa, bir qator boshqa davlatlar (Malayziya, Singapur, Tailand, Tayvan)ning tajribasi asosan bozor mexanizmlariga tayanishni o'zida aks ettiradi. Sanoati rivojlangan davlatlar sirasiga mansub eksportga yo'naltirilgan davlatlar (Tailand, Tayvan, Malayziya)ning ko'pchiligida xukumat eksport masalalariga deyarli aralashmagan. Boshqa davlatlar esa, aksincha, eksportchilar uchun qulay makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maxsus shakllaridan ham foydalanishgan.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, eksportni rag'batlantirishning asosiy vositalari quyidagilardir: qulay makroiqtisodiy muhit va ishlab chiqaruvchilar uchun eksportga rag'bat yaratish. Bunda eksportni rag'batlantirishning asosiy vositalari sifatida quyidagilar namoyon bo'lishi mumkin: soliq va boj imtiyozlari; grantlar va imtiyozli kreditlar berish; valyuta kursini belgilash va nazorat qilish; eksportni jadallashtirish uchun mamlakatda va xorijda maxsus davlat jamg'armalari, tashkilotlari va markazlarini tuzish.

Eksport subsidiyalari ko'p mablag' sarflanadigan tovarlar bilan bir qatorda ayrim tayyor mahsulotlar eksportiga, ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan keng tarzda ishlatiladi. Masalan, Janubiy Koreya hukumati 2001 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishga 25.95 milliard vonni tashkil qiluvchi subsidiya ajratdi. Ushbu subsidiyalar mevalar, gullar, sabzavotlar, kimchi, jenshen va qora mol mahsulotlariga tegishli edi.

Eksportni sug'urtalash eksport kreditlariga davlat kafolatlarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi davrda u keng turdagi mahsulotlar va mamlakatlarga tarqalgan. Sug'urtalash Eksport-import banki (AQSh), Eksport kreditlarini kafolatlash departamenti (Buyuk Britaniya) kabi maxsus tashkilotlar yoki ushbu maqsadlar uchun davlat mablag'laridan foydalanish xuquqiga ega bo'lgan xususiy sug'urta kompaniyalari (Olmoniya, Belgiya) orqali amalga oshiriladi. Masalan, Braziliyada eksportni moliyalash, sug'urtalash va kafolatlash qishloq xo'jalik mahsulotlari, mashina asbob-ukunalari, uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar singari ko'plab mahsulotlar uchun braziliyalik eksportchilarga kredit ajratadigan maxsus Dastur (PROEX) vositasida amalga oshiriladi. Malayziyada belgilangan foiz qiymati bilan qisqa muddatli moliyalash tijorat banklari orqali Malayziya Eksport-Import Banki (EIB) tomonidan moliyalashtiriladi va tartibga solib turiladi. Shunday qilib, qisqa muddatli moliyalashtirish sanoat ishlab chiqaruvchilari, savdo kompaniyalari va bilvosita eksportchilar (bevosita ishlab chiqaruvchilarning yetkazib beruvchilari)ga beriladi.

Yuqorida sanalgan eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlarining xammasi u yoki bu darajada turli mamlakatlarning zamonaviy tajribasida qo'llaniladi. Biroq ushbu choralardan aloxida birining muayyan bir vaqt davomida yoki turli taraqqiyot bosqichidagi ma'lum bir davlat tajribasidagi ahamiyati aslo teng qiymatga ega emas.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat eksport salohiyatini oshirish va undan oqilona foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- erkin iqtisodiy hududlarni barpo qilish.
- integratsion birlashmalarga qo'shilish (bojxona bojlari - qulay rejim va transport xarajatlarining kamayishi).
- mavjud qo'shma korxonalarga beriladigan imtiyozlar (soliqlar bo'yicha va boshqalar);

2. O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z iqtisodiy rivojlanish modelini tanlash bilan birga tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham bozor iqtisodiyoti sharoitini taqozo qiladigan ustuvor yo'nalishlarni belgilab oldi.

Ushbu paragrafda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati tartibga soluvchi, jumladan eksport salohiyatini oshirishga doir xuquqiy me'yoriy xujjatlar tahlili respublika mustaqillikka erishgan davrdan boshlab ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining negizlari Konstitutsiyaning 17-moddasida asoslab berilgan. Unda "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la xuquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan xal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro xuquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslangan. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin " deya e'tirof etilgan.

Tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun xam, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mamlakatimiz eksport imkoniyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan muhim me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'grisida" (2000 yil 26 maydagi yangi taxriri), "Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillari to'grisida", "Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish chora-tadbirlari to'grisidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va bir qator boshqa me'yoriy xujjatlar qabul qilindi. Ushbu qonun hujjatlarida tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning asosiy qoidalari va tamoyillari, uning sub'ektlari va ob'ektlari, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qonuniy asoslari, xorijiy investorlarning xuquq va majburiyatlari o'z aksini topgan.

Ma'lumki, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (14.06.1991 y. № 285-XP son, yangi taxriri) tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'lik munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu Qonunning asosiy vazifalari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, uning iqtisodiy suvereniteta va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, milliy iqtisodiyot rivojini rag'batlantirish, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga xaqlidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun xujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.1998 yil № PF-1919 sonli farmoniga muvofiq qo'shma korxonalarni barpo qilish hamda xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb etishda qo'shilgan qiymat soligidan ozod etiladi. Jumladan,

- hukumatning kafolati bilan beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyixalarini amalga oshirishda;
- xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan, yangi barpo etilayotgan va korxonalar qayta qurishda;
- xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarning ustav mablag'iga qo'yilma sifatida xorijiy sarmoyadorlar tomonidan keltiriladigan texnologiya uskunalari;
- respublikaning neftgaz tarmogi ob'ektlarida.

18.02.1998 № PF-1930 sonli farmonining 5-bandiga muvofik, import bitimlari xaqini to'lash bo'yicha kafolat majburiyatini faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va vakolatli banklargina berishga xaqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Boshqa vazirliklar, idora, maxalliy hokimiyat organlari xorij xamkorlarga kafolatlar berish yoki o'zga majburiyatlarni olishi ta'qiqlangan.¹⁰

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jixatdan qayta jixozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini barpo qilishda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlarga imtiyozlar va kafolatlar huquqiy bazasini tashkil qilish xozirgi kunning dolzarb mavzularidan biridir.

Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan qo'shmcha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yil № PF-3594 sonli "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-445 sonli "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va ximoya qilish choralari to'g'risidagi farmoni mamlakatda jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zarur shart-sharoitlarni yaratish, tashqi iqtisodiy faoliyatni avj oldirish, ichki bozorni eng zarur mollar bilan to'ldirish, qo'shimcha kapital mablag'larni, ilg'or texnikani va boshqarish tajribasini jalb etish, xorijiy sarmoyadorlarning xuquqlarini ximoya qilishda ishonchli kafolatlarni ta'minlash, respublikaning eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash kabi masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga transformatsiya jarayonining ilk davrida mamlakatlar xukumati ko'proq import o'rnini bosuvchi siyosatdan foydalangan. Bu ochiq iqtisodiyot sharoitida muxim va strategik ahamiyatga ega tovar va xizmatlarning chetga chiqib ketishi, oqibatida esa mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga putur yetishini oldini olgan. Keyinchalik, muntazam ravishda eksport imkoniyatlarini kengaytirib borgan.

¹⁰ 18.02.1998 № PF-1930 sonli farmoni

O'zbekiston Respublikasi ham tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishda ana shunday yo'ldan bordi. Hususan, 1997 yilga qadar mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatida "import o'rnini bosish" yuqori ulushga ega edi. Iqtisodiy islohotlarning 2-bosqichi o'rtalaridan boshlab, eksportga yo'naltirilganlik darajasini oshirish, shu bilan eksportning xom-ashyoviy yo'nalishini minimallashtirish chora tadbirlari hisobga olindi. Bu borada respublikaning eksport imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari qabul qilindi.

1998 yil 12 martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №110 sonli Qarori¹¹ bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining eksport imkoniyatlarini rivojlantirish Davlat dasturi" shular jumlasidandir.¹²

Mazkur Dastur xalq xo'jaligi va tashqi iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun ko'zga tashlanadigan ijobiy o'zgarishlar bilan birgalikda shu sohadagi mavjud muammolar, shu jumladan, ilgari yuzaga kelgan eksportning xom-ashyo yo'nalishini bartaraf etish chora tadbirlari hisobga olingan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi sifatida mavjud resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan eng ko'p darajada foydalanish asosida eksport xajmlari barqaror o'sishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash va uning tarkibini takomillashtirish olingan. Dastur mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha umumiy yo'nalishlarni belgilanganligi bilan birga, 2000 yilgacha iqtisodiyot tarmoqlari eksport o'sishining prognoz parametrlari, eksport tarkibini o'zgartirishning tadrijiy o'sishi keltirilgan.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998 yil 12 martda 110-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining eksport imkoniyatlarini rivojlantirish Davlat Dasturi" o'z ichiga quyidagi yo'nalishlarni oladi:

1. Neft va gaz majmuasi - yaqin 20 yilda (2018 yilgacha) eng tejamli va ekologik toza energiya ishlab chiqarish sanoatini barpo qilish.
2. Sanoat (industriya)ni rivojlantirish majmuasi - Raqobatbardosh mahsulotlar (mashinasozlikda) ishlab chiqarish asosiy vazifa hisoblanadi. Buni chet el investitsiyasi va texnologiyasi evaziga amalga oshirish.

¹¹ 1998 yil 12 martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №110 sonli Qarori

¹² "O'zbekiston Respublikasining eksport imkoniyatlarini rivojlantirish Davlat dasturi"

Tarmoqning eksport imkoniyatlarini oshirish maqsadida maxalliy manbalar hisobiga moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash, texnika bilan qayta jixozlash va ishlab turgan korxonalarni rekonstruktsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish evaziga amalga oshirish.

3. Qurilish majmuasi - Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining "Uzsuvxorijiyqurilish" respublika birlashmasi bo'linmalari tomonidan Afgoniston, Gvineya va Suriya hududida qurilish-montaj va loyixa-qidiruv ishlarini bajarish rejalashtirilgan.

4. Iste'mol bozori majmuasi - yengil sanoat korxonalari eksportini oshirish (tekstil va paxta tozalash, poyafzal, mebel, tamaki mahsulotlari)

5. Agrosanoat majmuasi - Dasturning amalga oshirilishi "Uzdavpaxtasanoatsotish" uyushmasi tomonidan o'zbek paxtasining jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashni, "Uzmevasabzavotuzumsanoat-xolding" kompaniyasining eksport imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi, charm xom ashyosi, jun va qorako'l teri eksporta ham ko'payadi.

6. Xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqdari - (aloqa, turizm) Xorijiy telekommunikatsiya asbob-uskunolari va aloqa vositalarini sertifikatlash qilish.

O'zbekiston hukumati tomonidan hozirda jahon iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarining oldini olishda ham mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, xususan eksport qiluvchi korxonalar barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi mavjud sharoitda iqtisodiy dasturlarning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda jahon iqtisodiy inqirozining ta'siri va oqibatlarini hisobga olish juda muhim.

Shunday ekan, respublikada jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009—2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni yaqin istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan, besh tamoyil: birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat,

davlatning bosh isloxotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, isloxotlarni bosqichma-bosqich vazminlik bilan amalga oshirish moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi ko'rsatmoqda.

Jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlari bilan jahon moliyaviy inqirozining oqibatlariga qarshi kurash yo'lida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish (08.10.2008 yil № PK,-975, 13.11.2008 yil № PK,-998), iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni (28.11.2008 yil № PF-4058) ishga solish ko'zda tutilgan. Jumladan, 28.11.2008 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PF-4058 sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'grisidagi farmonida mamlakat iqtisodiyoti real sektorida jahon moliya inqirozining salbiy oqibatlari nimalar hisobiga bartaraf etilishi mumkinligi va bu boradagi xal qiluvchi omillar aniq belgilab berilgan, ishlab chiqarishni keyinchalik barqaror o'stirish va xajmlarini kengaytirish, mahsulot sotishning yangi bozorlarini o'zlashtirish asoslari ko'rsatilgan.

Ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi 5 ta bo'lim 28 ta banddan iborat bo'lib, bunda

- eksport qiluvchi korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va qo'llab quvvatlash;
- maxalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari (xizmatlari)ga bo'lgan ichki talabni ortishini rag'batlantirish;
- iqtisodiyotni real sektorida investitsion faollikning o'sishini ta'minlash va resurs bazasini kengaytirish;
- elektr energetika sohasini modernizatsiya qilish, energiya sarfini qisqartirish va energiya tejovchi tizimni tadbiq etish;
- kichik biznes rivojlanishini qo'llab quvvatlash choralari kengaytirish, yangi ishchi o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Birinchi navbatda, bu - korxonalarda modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jixozlash ishlarini amalga oshirishdan iborat. Eng avvalo, bu iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga taalluqlidir. Korxonalar, birlashmalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar raxbarlarining diqqat-e'tibori ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jixozlash borasida qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishni jadallashtirish, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish, xalqaro sifat standartlariga o'tish zarurligiga qaratilganki, bular tashqi bozorlarda ham, ichki bozorlarda ham barqaror o'rin egallash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni qayta jixozlash va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, buning hisobiga eng kam chiqim bilan sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash chora-tadbirlarini o'z vaqtida ko'rgan mamlakatlar vujudga kelgan inqirozdan nisbatan kamroq zarar bilan chiqishni ta'minlaydi. Shu boisdan Farmonda bazaviy tarmoqlarni modernizatsiyalash borasidagi eng muxim 11 ta dasturni amalga oshirishni jadallashtirish, sanoat korxonalarining eskirib qolgan uskunolari va asosiy fondlarini jadal yangilash, texnik qayta jixozlash loyixalari bo'yicha uskunalar xarid qilish buyurtmalarini tezkorlik bilan amalga oshirish, sanoatda va transport infratuzilmasida eng muxim loyixalarni joriy etishni boshlash va ularni bajarish muddatlarini kamaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish real mablag' manbalari bilan mustahkamlangan - korxonalarining o'z mablag'lari, banklarning kreditlari, shu jumladan, ularning kapitalini sezilarli darajada ko'paytirish hisobidan beriladigan kreditlar, shuningdek tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi xamda xalqaro moliya institutlarining kreditlari shular jumlasidandir.

Respublika korxonalari tomonidan eksport qilinadigan bir qator mahsulot turlari bo'yicha jahon tovar bozorlaridagi joriy konyukturaning keskin yomonlashuvi - bugungi kunda g'oyat dolzarb bo'lib turgan masalalardan biridir.

Qayd etilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida, Farmonda eksport qiluvchi korxonalarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash va eksport uchun qo'shimcha omillarni yaratishda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat tomonidan aniq choralar ko'rish nazarda tutilgan. Shu maqsadda eksport qiluvchi korxonalarga

aylanma mablag'larini to'ldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, ularga vaqtinchalik soliq imtiyozlari va mavjud kreditorlik qarzini restrukturizatsiya qilish imkoniyatini berish mo'ljallanmoqda.

Mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlashda, xususan sanoatning bazaviy tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini qat'iy nazoratga olish va iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish eksport qiluvchi korxonalar uchun katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham dasturda elektr energiyasi va asosiy kommunal xizmatlar narxlarining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarda texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash, materiallar va energiya sarfini hamda boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini kamida 20 foizga arzonlashtirish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni islox etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida qabul qilingan Respublika Prezidenti Qarori (12.03.2009 y. №PK,-1072) muhim ahamiyat kasb etadi. Unga muvofiq, 2009-2014 yillar uchun hozirda amalga oshirilayotgan va kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyixalari va ularni moliyalashtirish manbalari belgilab berilgan. Shu bilan birga strategik muhim ahamiyatga ega ob'ektlarni ko'rib bitkazish va ishga tushirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston Respublikasiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday ta'sir dunyo bozorida mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab va narxning keskin tushib ketishi oqibatida milliy iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarmoqdari korxonalarining faoliyatida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston xukumatidan hozirda jahon iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarining oldini olish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, xususan eksport qiluvchi korxonalar barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, bu nafaqat inqirozni oldini olish, balki, yaqin istiqbolda hamda kelgusida mamlakat iqtisodiyotini yanada mustahkamlash uchun vujudga kelishi mumkin bo'lgan boshqa xavf-xatarlarni oldini olish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash lozim bo'ladi.

3. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida O'zbekistonda tashqi savdoning rivojlanishi va unga xos xususiyatlar

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash ko'p jixatdan uning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga, eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarining aniq natijalariga bog'liq. Respublikamizda iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish XXI asr boshida mamlakatimiz rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiyot ochiqlik darajasining o'sishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Respublika 2013 yilda tashqi savdoda ijobiy saldoga erishib, u 4,2 mlrd. AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi. Shundan, 13044,5 mln. AQSh dollari eksport, 8799,7 mln. AQSh dollari esa importni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasining 43,1% ya'ni 9424,6 mln.

3-jadval

O'zbekiston eksportining tovar tarkibining o'zgarishi* (jamiga nisbatan foizda)

Eksport	2000 y.	2005 y.	2013 y.
Jami:	100,0	100,0	100,0
paxta-tolasi	27,5	19,1	11,3
oziq-ovqat mahsuloti	5,4	3,8	9,7
kimyo mahsuloti	2,9	5,3	5,3
energiya manbalari	10,3	11,5	24,8
rangli va qora metallar	6,6	9,2	6,8
mashina va asbob-uskunalar	3,4	8,4	5,5
xizmatlar	13,7	12,2	9,1
Boshqalar	30,2	30,5	27,7

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonning eksport salohiyatini ilmiy jixatdan o'rganish, shuningdek, mintaqalar eksport faoliyatini qiyoslash muxim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot mobaynida 2000-2013 yillardagi O'zbekiston Respublikasining eksport faoliyati tahlil qilindi. Mazkur davrda milliy iqtisodiyot eksportini o'rganish 4 turdagi tendentsiyalarni (keskin pasayish, pasayish, o'sish, keskin o'sish) ajratishga va quyidagicha xulosalar qilishga asos bo'ldi.

1. Respublika tovar va xizmatlar eksporti 2000 yil 3264,7 mln. AQSh dollarini tashqil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2013 yilda 13044,5 mln. AQSh dollariga etdi. Demak, o'tgan davr mobaynida eksport xajmi 4,0 martaga ortdi¹³

2. 2000 yilda respublikada aholi jon boshiga eksport xajmi 132,4 AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013 yilga kelib 460,5 AQSh dollarga ko'paydi. Demak, o'tgan 11 yil davomida bu ko'rsatkich 3,5 barobarga ortgan. Bu o'sish faqatgina narx omili ostida emas, balki eksport tarkibidagi tayyor mahsulotlar salmog'ining oshishi va mutloq xajmining ortishi hisobiga ta'minlandi.

2000-2013 yillarda Xorazm mintaqasi jon boshiga eksport indeksi o'rganilganda, unda biroz pasayish tendentsiyasi kuzatildi. Biroq, xolat yanada chuqurroq taxlil qilinsa shu narsa ayon bo'ladiki, jahon miqiyosida sodir bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz 2013 yilda mintaqqa eksport imkoniyatlarini pasayishiga sabab bo'lgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi 2000-2014 yil uchun ma'lumotlar asosida hisoblandi.

Mintaqalarning jon boshiga eksport indeksi dinamikasi

Hududlar	2000 yil		2013 yil	
	jon boshiga eksport AQSh doll.	jon boshiga eksport indeksi	jon boshiga eksport AQSh doll.	jon boshiga eksport indeksi
O'zbekiston Respublikasi	132,4	1,000	460,5	1,000
shu jumladan:				
Qoraqalpog'iston Respublikasi	34,7	0,262	55,3	0,120
Andijon	57,6	0,435	246,7	0,536
Buxoro	126,0	0,951	206,8	0,449
Jizzax	37,6	0,284	168,7	0,366
Qashqadaryo	53,3	0,403	127,5	0,277
Navoiy	290,8	2,196	637,4	1,384
Namangan	39,8	0,300	144,6	0,314
Samarqand	50,4	0,380	34,6	0,075
Surxondaryo	52,4	0,395	127,6	0,277
Sirdaryo	191,1	1,443	199,8	0,434
Toshkent	160,7	1,213	666,6	1,448
Farg'ona	69,3	0,524	144,8	0,314
Xorazm	51,7	0,390	91,9	0,200
Toshkent sh.	369,5	2,790	2185,8	4,747

* Mintaqalar bo'yicha taqsimlanmagan malumotlar asosida tuzilgan

Mintaqalarning eksport salohiyati va undagi o'zgarishlar

Mintaqalar	2000 yil		2013 yil	
	eksport, mln. AQSh doll.	%da	eksport, mln. AQSh doll.	%da
Farg'ona	389,9	11,9	1417,3	10,9
Toshkent	1169,9	35,8	6696,1	51,3
Zarafshon	544,4	16,7	994,8	7,6
Janubiy	208,6	6,4	605,6	4,6
Mirzacho'l	160,5	4,9	335,6	2,6
Quyi Amudaryo	121,6	3,7	235,9	1,8
Mintaqalar bo'yicha taqsimlanmagan ulush	669,8	20,5	2759,2	21,2
Jami	3264,7	100,0	13044,5	100,0

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining kamayishiga olib kelgan asosiy omil respublika eksport tovarlariga jahon bozorida bo'lgan narxning pasayishi hisoblanadi. Chunonchi, paxta tolasi 2001 yilda 1995 yilga nisbatan 44%ga pasaydi. Xuddi shunday xolatni oltin va misga nisbatan ham kuzatish mumkin. 1996-2001 yillarda oltin 30%ga, pasaygan. Shuningdek, energiya manbalari hamda mineral o'g'itlar eksportining jismoniy xajmi pasayishi ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Respublika eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan yana biri 1998 yilda Rossiyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz va Rossiya rubli devalvatsiyasi hisoblanadi. Bunga javoban O'zbekistondan boshqa barcha MDH, mamlakatlari o'z milliy valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirdilar.

Natijada, MDH, mamlakatlarida O'zbekiston mahsulotlari raqobatbardoshligining pasayishi oqibatida respublika eksport xajmi sezilarli darajada pasaydi.

Respublikada kuzatilgan pasayish Xorazm mintaqasi yalpi eksport xajmining 2,1%ga kamayishi, asosan paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozoridagi narxi keskin tushishi hisobiga amalga oshdi.

2003 yildan respublika tashqi savdo aylanmasida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, 2003 yilda tashqi savdo aylanmasi 2002 yilga nisbatan 17,2 foizga, shu jumladan, eksport xajmi 24,6 foizga, import xajmi 9,2 foizga o'sdi. 2004 yilda mazkur ijobiy tendentsiya yana davom etdi. Chunonchi, 2004 yilda 2003 yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 29,6 foizga, shu jumladan, eksport xajmi 30,3 foizga, import xajmi 28,7 foizga o'sdi. Bunda asosiy xom ashyo tovarlariga bo'lgan jahon narxlarining o'sishi katta ro'l o'ynadi.


Oltin narxlarining o'sishi 2002 yildanoq boshlangan edi. Mazkur yil davomida uning narxi 30 foizga o'sdi. 2003 yilda esa yana 35 foizga o'sdi. 2004 yilning oxirida esa oltin narxlari so'ngi 16 yildagi eng yuqori ko'rsatkichga yetdi. 2003 yilda bu ko'rsatkich 330 dollarga teng edi. 2010 yilning noyabrida Londonning qimmatbaho metallar birjasida oltinning 1 troitskiy untsiyasi 1400 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu 2003 yilga nisbatan 4,2 barobarga oshganligidan dalolat beradi.

2003 yilda O'zbekiston paxta eksportida asosiy o'rin tutuvchi paxta tolasining narxlari ham o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldi. 2003 yilning kuzidan boshlab paxta tolasining narxi yuqori sur'atlarda o'sa boshladi. 2010 yilda uning narxi maksimal narx - tonnasi uchun 4500 AQSh dollariga teng bo'ldi. Buning eng asosiy sababi jahon bozorida paxta tolasiga bo'lgan talabning oshishi va asosiy paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlar - Xitoy va AQShda hosildorlik darajasining past bo'lganligi hisoblanadi. Tashqi savdoni barqaror rivojlanib borishining muxim omillaridan biri bu jahon bozori konyunkturasidan kelib chiqqan xolda milliy eksport tarkibini diversifikatsiya qilinishidir.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bir tomondan mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltirgan bo'lsa, ya'ni jahon bozorida tovarlar narxining tushgani milliy mahsulotlar eksportidan keladigan tushumni kamaytirdi yoki ularning katta qismi jahon bozoridagi narx ishlab chiqarish tannarxini qoplamagani uchun sotilmay qoldi. Ikkinchi tomondan esa, inqiroz ijobiy ta'sir qilib, milliy ishlab chiqaruvchilarni yuqori texnologiyalarni joriy qilgan xolda yanada arzon va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishini takozo etdi.

3. Eksport tovar tarkibida 2000-2013 yillar oralig'ida kimyo mahsulotlarining ulushi 2,1%ga, energiya manbalarilari ulushi 23,9%ga, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa 0,6%ga oshgan. (Rasm 1.3.1.ga qaralsin).

Garchan eksport tarkibida rangli va qora metallurgiya mahsulotlari ulushi 1,6%ga, mashina va asbob-uskunalarining ulushi esa 0,5%ga kamaygan bo'lsada, 2008 yilgacha bo'lgan davrda ularning ulushi sezilarli darajada o'sgan. Misol uchun, rangli va qora metallurgiya mahsulotlari 2005 yilda eksportning 9,2%ini tashkil qilgan. Bu 2000 yilga nisbatan 2,6%ga yuqori demakdir. Xuddi shunday tendentsiya mashina va asbob-uskunalarining eksportida kuzatilib, 2000 yil 3,4%li ulushdan 2008 yil uning ulushi 8,4%ga ko'tarilgan



2-Rasm .O'zbekiston Respublikasi eksporti tovar tarkibining o'zgarishi

Shuni aytish joizki, respublika eksporti tovar tarkibida xom-ashyo mahsulotlarining ulushi yil sayin pasayib bormoqda. Chunonchi, eksportda paxta tolasining ulushi 2000 yilda 27,5%dan 2013 yilda 11,3%ga tushdi. Bunday xolat xizmatlar eksportida xam kuzatildi. Xususan, 2000 yilda xizmatlar jami eksportning 13,7%ini, 2013 yilga kelib esa, 9,1%ini tashkil qilgan. Bu esa o'z navbatida respublikamiz eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushining o'shishi, iqtisodiyotning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday xolat respublika eksportining

xom-ashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muxim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida O'zbekiston mintaqalari tashqi savdo faoliyati bo'yicha xarita tayyorlandi. Unga muvofik mintaqalar jon boshiga to'g'ri keladigan eksport xajmi bo'yicha 5 guruhga ajratilgan bo'lib, ular: 100 AQSh dollargacha - 7 ta (Qoraqolpog'iston Respublikasi, Namangan Samarqand, Jizzax, Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari), 101-200 AQSh dollarigacha - 3 ta (Buxoro, Andijon va Farg'ona viloyatlari), 201-300 AQSh dollarigacha - yuk, 301-400 AQSh dollarigacha - yuk va 400 AQSh dollaridan ko'p guruhga- 4 ta mintaq (Toshkent sh, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari) kiradi.

Shuningdek, kartada O'zbekiston respublikasi hamda mintaqalarning eksport va import xajmlari kartadiagramma shaklida berilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" asarida shunday deb ta'kidlagan edi: "Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda bunday o'zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda eksport asosan xom-ashyo yetkazib berishdan iborat bo'lib, dunyo bozoridagi narx-navo o'yinlariga xaddan tashqari bog'lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarda valyuta tushumlarini kamaytiradigan, moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy omildir".

Mintaqa eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu uning investitsion muhiti va tashqi iqtisodiy aloqalaridir. 2013 yilda Xorazm mintaqasiga kiritilgan barcha investitsiyalar xajmi 2014,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan 13,1 foizi chet el investitsiyasi va kreditlari mablag'iga, 7,9 foizi respublika byudjetiga va 61,5 foizi korxona va aholi mablag'lariga xamda qolgan qismi boshqa mablag'lar hisobiga to'g'ri keladi.

Shuni aytish mumkinki, Xorazm mintaqasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot salohiyatini yanada oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mana shu mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilsa mintaq kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda lokomotiv funksiyasini bajarishi mumkin.

Xulosa

Eksport salohiyatini baholash murakkab jarayon bo'lib, u o'ziga tabiiy xom-ashyo bazasi, mintaqa iqtisodiy holatini tavsiflaydigan eksport ishlab chiqarishini barqaror sur'atlarda o'sishi hamda aholining yashash darajasini ko'tarishga erishishini ta'minlovchi ilmiy-texnik, texnologik, sanoat, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni o'zida mujassamlashtiradi.

Eksport salohiyati murakkab voqelik bo'lib, u o'z ichiga tabiiy-resurs bazasini olishi bilan birga, mintaqa iqtisodiyoti xolatini oladi. Mintaqa iqtisodiyoti xolati esa, eksport ishlab chiqarishining mavjud va prognoz qilinayotgan bozor sharoitida barqaror sur'atlari va aholining yuqori yashash darajasini ta'minlovchi mintaqaning ilmiy-texnik, texnologik, sanoat, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ifodalaydi.

Mintaqa eksport salohiyatining shakllantirish va rivojlantirishning muhim omillari quyidagi uslubiy xolatlarda aks etadi:

1. Mintaqa eksport salohiyati tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar kompleksini, ya'ni O'zbekiston mintaqalarini bir-biri bilan taqqoslash imkonini beruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Bu mintaqaning tashqi iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

2. Mintaqa eksport salohiyatini sharxlashda 1-o'rinda turuvchi omil tabiiy-resurs salohiyatidir. Chunki, eksportning xom-ashyoviy yo'naltirilganlik darajasi 30%ni tashkil qiladi.

3. Tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yangi tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarining vujudga kelishi bilan bog'liq mintaqa eksport salohiyatining tadrijiyligi eksport salohiyatini muntazam monitoring qilib borish dolzarb vazifaligini anglatadi.

Umuman olganda yaratilgan xuquqiy asoslar xorijiy xamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning xuquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Eksport nazorati” to’grisidagi O’zbekiston Respublikasining Qonuni 26.08.2004 y. № 658-P.
2. “Qimmatli qog’ozlar bozori” to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonuni yangi tahrirda 2015 yil
3. "O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rag’batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va ximoya qilish choralari” to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni №PF-445 24.07.1992 y.
4. I.A.Karimov “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” Toshkent O’zbekiston, 2015
5. Ishmuhammedov A.E., Asqarova M.T. “O’zbekiston milliy iqtisodiyoti” - TDIU, 2003
6. Ibadullayev E, Rajabov A “Mintaqa eksport salohiyatini oshirishning ba’zi bir jihatlari” UrDu “Ilm sharchashmalari” 2015y
7. Raxmonov R.N. “Qishloq xo’jalik mahsulotlarining eksport salohiyatidagi o’rni” G’G’ O’zbekiston qishloq xo’jaligi jurnali. №22
8. Internet saytlar
www.mfer.uz - O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
www.review.uz - " Экономическое обозрение " jurnalining rasmiy sayti
www.eurasianews.com - EvroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti